

HOLATI

Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali dotsenti, q.x.f.f.d. (PhD)

Aminova Shoiri Furqat qizi

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali assistenti
(stajyor-tatqiqotchi)*

Annotatsiya. Chorvachilik mahsulotlarini yetarli darajada tayyorlashda mahalliy mahsulotlarni ko'paytirish va undan to'g'ri foydalanish, qayta ishlash texnologiyalarini joriy qilish, tayyorlanayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash talab etiladi. To'qimachilikda ishlatiladigan tolalari orasida tabiiy jun tolalari o'zining gigienik xususiyatlari bilan alohida o'rin tutadi. Jun xom ashyosi kigizlanishi, yigiriluvchanligi, bo'yalishi, egiluvchanligi, cho'ziluvchanligi, namlik va quyosh radiatsiyasiga chidamliligi kabi tovar xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar. To'qimachilik. jun, tola, kigiz, semizlik darajasi, teri qoplami, chigal junlar, junning namligi, tola uzunligi,

Аннотация. Для того чтобы качественно готовить продукцию животноводства, необходимо увеличивать и правильно использовать местную продукцию, внедрять технологии переработки, повышать качество приготавливаемой продукции. Среди волокон, используемых в текстиле, волокна натуральной шерсти занимают особое место благодаря своим гигиеническим свойствам. Шерстяное сырье отличается такими фирменными свойствами, как валяние, прядение, крашение, упругость, эластичность, устойчивость к влаге и солнечному излучению.

Ключевые слова. *Текстиль. шерсть, волокно, войлок, степень убитанности, кожный покров, спутанная шерсть, влажность шерсти, длина волокна,*

Annotation. *In order to adequately prepare livestock products, it is necessary to increase and properly use local products, introduce processing technologies, and improve the quality of the products being prepared. Among the fibers used in textiles, natural wool fibers have a special place due to their hygienic properties. Woolen raw materials are distinguished by such brand properties as felting, spinning, dyeing, elasticity, resistance to moisture and solar radiation.*

Keywords. *Textiles. wool, fiber, felt, condition level, skin, matted wool, wool moisture, fiber length.*

Chorvachilik mahsulotlarini yetarli darajada tayyorlashda mahalliy mahsulotlarni ko'paytirish va undan to'g'ri foydalanish, qayta ishlash texnologiyalarini joriy qilish, tayyorlanayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash talab etiladi. Tayyorlanayotgan jun sifatini yaxshilash muammolari bilan respublikamizning ko'pgina olimlari, jumladan, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlaridan va boshqalar izlanishlar olib borishgan. Lekin, shunga qaramasdan junga mukammal ravishda ishlov berish, qayta ishlov berish mashinalari va zamonaviy texnologiyalarga muxtojlik sezilmoqda.

Jun tolalarining o'ta murakkab tuzilishga ega ekanligi bilan bir qatorda qo'ying terisida barcha xususiyatlarga ega bo'lgan tolalar uchragani uchun ham, junga birlamchi ishlov berishda bir vaqtning o'zida tolaning bu xususiyatlarini hamda texnologik va zootexnik xossalarini inobatga olgan holda ishlov berish texnik vositalarini yaratishni talab qiladi. Qirqilgan junning bu xususiyatlari bo'yicha sinflarga ajratish katta mehnat talab etadi.

Hozirgi kunda chorvachilik xo'jaliklari jun qirqish punktida qirqilgan junlarni iflosliklari bo'yicha saralanib, sinflarga ajratiladi. Bunda toza junni iflos junlardan ajratish, tayyorlanayotgan jun sifati va junga keyingi ishlov berish

jarayonlariga ijobiy ta'sir etadi. Lekin, junga birlamchi ishlov berish boshqa (junning namligi, tola uzunligi, diametri, tivitligi) omillarga ham bog'liq bo'ladi

Respublika mustaqillikka erishgach, xo'jalik sub'ektlarining yangi zamonaviy shakllari paydo bo'ldi. Mamlakatning xo'jalik sub'ektlari uchun yangi qonuniy munosabatlar asosi yaratildi, ular mulk va xo'jalik shakllaridan qat'iy nazar, barcha xo'jalik sub'ektlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratdi.

Bu va boshqa ko'pgina ijobiy omillar ishlab chiqarishning jadallashuvini, takomillashuvini va xo'jaliklar rivojlanish ravnaqini ta'minladi. Qo'ychilik tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlari borasida tadqiqotlar olib borgan olimlar, bu soxa chorvachilikning boshqa soxalaridan farqli o'laroq, bepoyon dashtu-sahrolarda urchitilib, boqilyotgan va ana shu og'ir iqlim sharoitda rivojlanib, qo'ychilik aholini: bebaho qorako'l terilarga, mazali qo'y go'shtiga, qimmatli gilambop junga, po'stinbop terilarga, qo'zi shirdonchalariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib kelmoqda deb ta'kidlashgan.

Uning boshqa sohalarga nisbatan tarqoq, xom ashyo mahsulotlariga ishlov beruvchi, sanoat korxonalaridan uzoqda joylashganligi, respublika mashinasozlik sanoati, soha ehtiyoji uchun juda zarur bo'lgan ishlov berish kichik korxonalari, sexlari, liniyalarining ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilmaganligi va boshqalar soxani kasodga uchrashiga sabab bo'lmoqda.

Butun dunyoda yetishtirilayotgan jun miqdori sanoatning ehtiyojini aslo qondira olmaydi, buning ustiga ko'pgina mamlakatlarda asosan dag'al junli qo'ylar boqiladi. Shuning uchun sanoatda tabiiy junga sun'iy va sintetik tolalar qo'shib ishlatiladi.

Respublikamizda mavjud fermer, dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklar ishlab chiqaruvchilari, o'z mahsulotlarini kam mehnat evaziga, amaldagi andoza me'yorlash talablariga to'liq javob bera oladigan holatda ishlab chiqishlari va ularning jadal o'zgaruvchan bozor kon'yunkturasi talablariga mos kelishiga erishishlari lozim .

Mahsulotlarni qayta ishlash sanoati korxonalari, jumladan, junga birlamchi ishlov berish fabrikalari, to'qimachilikda toza jun va boshqa turdagi jun

aralashmali, tolalardan bozor konyukturasini inobatga olgan holda, zamon talabiga mos keladigan chiroyli, yengil, bejirim tayyor mahsulotlar ishlab chiqishlari zarur.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun eng avvalo xom ashyo yuqori sifatga ega bo'lishi lozim. Bu esa ishlab chiqarish korxonalariga zamonaviy texnologiyalar va texnologik jixozlar kiritilishini talab etiladi.

Respublikamizning iqlim sharoiti yengil sanoat fabrikalari uchun kerakli xom ashyo beradigan hayvon turlari uchun qulay hisoblanadi. Jun mahsulotini olishda qo'ychilik, echkichilik va tuyachilik asosiy ma'nba bo'lib xizmat qiladi.

Qo'ylarni ratsion asosida oziqlantirmaslik, saqlashda zoogigenik me'yorlariga e'tibor qilmaslik, ular uchun o'tkazilishi lozim bo'lgan zootexnikoviy tadbirlarni vaqtida amalga oshirmaslik, jun qirqimini noto'g'ri tashkillashtirish, (sinflash, saqlash) birlamchi ishlov berish rejimlariga e'tibor bermaslik, junning sifatining buzilishiga, fizik-mexanik va texnologik xususiyatlarining salbiy tomonga qarab o'zgarishiga olib keladi.

O'simliklarning jun tolalardan qiyin ajraladigan urug'lari va qoldiqlari bilan ifloslanishi ularning sifatini pasaytiradi.

Junning ifloslanishi asosan, qo'ylarni yaylovda boqishda, bir yaylovdan ikkinchi yaylovga haydab o'tishida, oziqalarni tarqatishda vujudga keladi.

Junlarning o'ta ifloslanishi esa sug'oriladigan yerlarning ekinlarni yig'ishtirib olingan maydonlarda qo'ylarning boqilishi natijasida sodir bo'ladi. Bunda o'simlikning yopishqoq urug'lari minglab ilmoqchalari bilan qo'y juniga mahkam yopishib qoladi. Qo'ylarning biri-biriga to'qnashishi natijasida jundagi o'simliklarning yopishqoq urug'lari yanada chuqur va mustahkam o'rnashib qoladi. Natijada ajralishi qiyin bo'lgan o'ziga xos shaklga ega bo'lgan tugunchalar hosil bo'ladi.

Jun to'qimachilikda ishlatiladigan tolalar ichida eng qadimiy xom ashyo hisoblanadi. Qadimdan odamlar jun mahsulotidan namat-kigiz, fetr, gilam va trikotaj tayyorlash uchun keng foydalanib kelishgan. Jun tolasini to'qimachilik sanoatida tengi yo'q xom ashyodir.

Bugungi kunda, respublikada asosiy chorvachilik mahsulotlaridan biri bo'lgan jun tayyorlash qishloq xo'jaligi korxonalarida 6,15 foiz, dehqon va shaxsiy xo'jaliklarida 85,0 foizni tashkil etib, fermer xo'jaligida bu ko'rsatkich 7,9 foizga tengdir.

Bundan ko'rinib turibdiki, tayyorlanayotgan jun asosan fermer, dehqon va aholining shaxsiy xo'jaliklarida tayyorlanmoqda. Fermer, dehqon va aholining shaxsiy xo'jaliklarda boqilayotgan qo'ylar kichik otarlardan tashkil topganligi sababli tayyorlangan jun salmog'i ham kam bo'lib, e'tibordan chetda qolmoqda.

Bunday xo'jaliklarda markazlashgan jun qirqish punktlarida jun qirqimi mavsumini tashkil etish, tayyorlanayotgan jun salmog'ini va sifatini yaxshilashga omil bo'ladi. Xo'jaliklarda tayyorlanayotgan jun xom ashyosining tozalik darajasi va sifatining pastligi, junning sotilish narhining pasayishiga olib keladi. Ifloslanganlik darajasi 20 foizdan oshgan jun tayyorlash punktlariga qabul qilinmaydi. Natijada, bunday holatdagi jun davlatga sotilmasdan qolib ketadi.

Qo'ychilik, respublikaning barcha hududiga tarqalgan bo'lib, jaydari qo'y zoti asosan tog'oldi tekisliklarida, hisor zotli qo'ylar tog'oldi zonalarida, qorako'l zotli qo'ylari esa cho'lli xududlarda boqiladi. 2014 yilga kelib, respublikaning barcha toifadagi xo'jaliklarida boqilayotgan qo'y va echkilarning soni 17 million 720 ming 200 boshni tashkil qilgan.

Qorako'lchilik, asosan qumli cho'larda (52 foiz), dasht efemerli cho'llarda (40,5 foiz) va tog'oldi yarimcho'llarda (8,0 foiz) rivojlangan. Maxsus qorako'lchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar asosan Qoraqolpog'iston respublikasi, Navoiy, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand, Buxoro va Surxandaryo viloyatida joylashgandir. Barcha ixtisoslashgan qorako'lchilik xo'jaliklari respublika ichki va tashqi bozori talablariga asosan teri va dag'al jun tayyorlab beradi.

Chorvachilikning asosiy tarmog'i bo'lgan qo'ychilikning jadal suratlarda rivojlanishi natijasida, respublikada jun etishtirish 2003 yilda 17,6 ming tonna bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich 34 ming tonnadan oshgan. Chorvachilik mahsulotlari Respublika umumiy yillik ichki mahsulotining – 15 foizini, qishloq xo'jaligida - 49,2 foizini tashkil etadi.

Hukumatimizning agrosanoat sektori bo'yicha amalga oshirgan yirik islohotlari va amaliy ishlari natijasida tarmoqda perespektiv rivojlanish ro'y bermoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgach dehqon, fermer va shirkat xo'jaliklarining tashkil etilishi va uning rivojlanishiga keng yo'l ochilishi sababli, chorvachilik mahsulotlarini tayyorlash keskin suratlarda oshib bormoqda .

Chorvachilik mahsulotlarini etarli darajada va sifatli tayyorlashda mahalliy mahsulotlarni ko'paytirish va undan oqilona foydalanish, ularni birlamchi ishlash texnologiyalarini joriy qilish, talab etiladi. Shu sababli chorvachilik sektorida, xususan jun tayyorlash va qayta ishlash sohasida ham ayrim muammolar tug' ilmoqda. Bunga misol qilib, chorvachilikka ixtisoslashgan va fermer xo'jaliklarda tayyorlanayotgan junlarning o'simlik qoldiqlari va ularning yopishqoq urug'lari bilan kuchli ifloslanishini keltirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan muammolardan kelib chiqqan holda, shuni takidlash mumkinki, chorvachilik xo'jaliklari qirqish punktlari sharoitida sifatli jun tayyorlash texnologiyasi va texnik vositalar tarkibini o'rganish, zarur bo'lsa, shu sharoitga mos keladigan samarali ishlay oladigan, arzon va sodda konstruktiv tuzilishga ega bo'lgan, engil va ko'chma mexanik usulda junni birlamchi tozalash apparatini ishlab chiqish va uni xo'jaliklarga joriy qilish zarur.

XULOSA

Chorvachilikka ixtisoslashgan va fermer xo'jaliklarida tayyorlanayotgan junlar sifatini yaxshilash maqsadida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ifloslangan junlarni xo'jaliklar jun qirqish punktlarida saralash va shu erning o'zida birlamchi tozalash, tayyorlanayotgan junning sifatini va salmog'ini oshiradi.

Shuni takidlab o'tish kerakki, respublikada qo'y va echkilar tuyog'i yil sayin ko'payib bormoqda. Dag'al junli qo'ylarning asosiy qismini qorako'l qo'ylari tashkil qilgan. Hukumatimizning sohani rivojlantirishga qaratilgan qarorlarida jun tayyorlash bazasini har tomonlama rivojlantirish va jun xom ashyosi tayyorlashni ko'paytirish ko'rsatib o'tilgan. Respublikamizning iqlimi va yaylov sharoiti quychilikni rivojlantirishga juda qulay bo'lib, kelgusida bu sohaga yana ham ko'proq e'tibor berilishi ko'zda tutilmoqda.

Jun tolalari kigizlanish xususiyatiga ega, barcha boshqa tolalar bunday xususiyatga ega emas. Jun tolalari odam organizmi sogʻligi uchun muhim boʻlgan ultrabinafsha nurlarini oʻtkazishi, boʻyoqlarni oʻzida yaxshi tutishi, yuqori darajada qayishqoqligi kabi muhim xossalarga ega. Jun tolalarining chidamliligi, ingichkaligi ulardan bir xil yoʻgʻonlikdagi temir simchaning mustahkamligiga toʻgʻri keladi.

Jun quyosh radiatsiyasiga, issiqlikga, namlikga bardoshli hamda sovuq oʻtkazmaydi, sekin yonadi, shovqindan, elektr tokidan va tebranishdan yaxshi himoyalovchidir. Demak kompleks xususiyatlariga koʻra, jun tolalari boshqa xil tolalarga nisbatan afzal hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Yusupov S.Y., Bozorov S.R. Junga birlamchi ishlov berish texnologiyasi. – Samarqand, 1998. –B.16 –17.
2. Yusupov S.A. Maxalliy jun tolalariga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish: Dis.kan.tex–T: 2004, 194-b.
3. Yusupov S.Y., Axmedov F. Oʻzbekistonda qorakoʻlchilikning holati va navbatdagi vazifalar // Zooveterinariya. –T: 2011, №8.-B.34-35.
4. Sherov E., Inoyatov A.I. Turli jun konstitusiya tipidagi qorakoʻl qoʻylarning jun mahsuldorligi // Zooveterinariya, Toshkent, 2014. №11.S.29-30.
5. Toʻxtarov R., Xasilbekov A. Junga birlamchi ishlov berishda namlikning jun sifatiga taʼsiri / Ilmiy maqolalar toʻplami. Samarqand 2015. –B.178-180.